

INGLIZ VA O‘ZBEK PAREMIOLOGIK MATNLARIDA “VAQT” TUSHUNCHASINING IFODALANISHI

Kurbonova Surayyo Anvarovna

tayanch doktorant (Qarshi davlat universiteti)

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20288129>

Annotatsiya: Ushbu maqola ingliz va o‘zbek tillaridagi paremiyalarda “vaqt” tushunchasining ifodalanishini taqqosiy tahlil qiladi. Paremiyalarning semantik xususiyatlari, metaforik tasvirlari va madaniy konnotatsiyalari o‘rganiladi. Maqolada vaqtning qadrliligi, o‘tib boruvchiligi, uning inson hayotidagi roli va boshqa jihatlari aks etgan paremiyalar misolida tushunchaning milliy xususiyatlari aniqlanadi.

Kalit so‘zlar: Paremiya, maqol, vaqt, semantika, metafora, taqqosiy tahlil, ingliz tili, o‘zbek tili.

Paremiya – xalq hikmati, tajribasi va dunyoqarashini ifodalovchi qisqa, aforistik iboradir. Paremiyalar madaniyatning muhim qismidir va tilning o‘ziga xos xususiyatlarini aks ettiradi. O. Shaxriddinov ta’kidlaganidek “Tilning paremiologik fondi xalqning qimmatli lisoniy merosini ifodalaydi, ularning madaniyati, an’analari va tarixini aks ettiradi. Paremiyalarda xalqning oila, ish, jamiyat kabi hayot va hodisalarning turli sohalariga munosabati aks etadi” [1:157]. Shu o‘rinda alohida ta’kidlash joizki, “paremiya” tushunchasi ilmiy nuqtai nazardan ko‘pincha “takror ishlab chiqariladigan mikromatnlar” tushunchasi sifatida talqin qilinadi. Bunday mikromatnlar asosan xalq og‘zaki ijodiga mansub bo‘lib, maqol va matallar kabi janrlarni o‘z ichiga oladi [2:197]. Maqol va matallar xalqning asrlar davomida shakllangan hayotiy tajribasi, kuzatuvchanligi va donishmandligini o‘zida jamlagan, ular xalq ma’naviy merosining o‘ziga xos axloqiy-me’yoriy tizimini tashkil qiladi, shuningdek, ijtimoiy hayotning deyarli barcha jabhalarini qamrab oladi: ularda yaxshi bilan yomonni ajratish, kattalarga hurmat, mehnatga munosabat, ta’lim, oila va jamiyatdagi munosabatlar kabi qadriyatlar o‘z ifodasini topgan.

Paremiya – xalq madaniyati, tafakkuri va ijtimoiy ongining til vositasidagi in’ikosidir. Kengroq ma’noda olib qaralganda, paremiyalar – bu til birliklari bo‘lib, ular orqali xalq asrlar davomida to‘plagan hayotiy, madaniy va axloqiy tajribasi ifodalanadi. Paremiyalar xalqning an’anaviy qadriyatlari, dunyoqarashi, mentaliteti, ijtimoiy stereotiplari, hayot normalari va boshqa ko‘plab konseptlarini aks ettiradi. Masalan, O. Natxo o‘z tadqiqotlarida paremiyalarning asosiy funksiyasi sifatida aniq bir xalqning an’analarini yaratish, ularni qayd etish, saqlab qolish va avloddan-avlodga yetkazish jarayoni deb ta’riflaydi [3:28]. Bu esa shuni anglatadiki, har bir milliy madaniyat kontekstida paremiologik fond o‘ziga xos milliylikka ega.

Paremiologik matnlarning paydo bo‘lishi uzoq tarixga borib taqalib, asosan xalq og‘zaki ijodi mahsuli sifatida shakllangan. Bu esa ularning ko‘pchiligida she’riy tuzilma, ritmik uyushuv va ba’zida qofiyalilik aks etadi. Bu xususiyatlar paremiyalarni oson eslab qolish va og‘zaki tarzda uzatish jarayonini yengillashtiradi. Demak, paremiyalar, bir tomondan, tilning estetik imkoniyatlarini, boshqa tomondan esa xalq ongining tarixiy qatlamlarini o‘zida mujassamlashtirgan noyob lingvokulturologik fenomen sifatida namoyon bo‘ladi. Milliy-madaniy komponent tilning paremiyologik tarkibiy qismi sifatida ajralmas unsur hisoblanadi.

“Vaqt” tushunchasi insoniyat uchun universal ahamiyatga ega bo‘lib, turli tillarda va madaniyatlarda o‘ziga xos ifodalanishga ega. Ya’ni har bir jamiyat o‘zining bugungacha bo‘lgan rivojlanish bosqichida turli siyosiy, ijtimoiy, iqtisodiy, diniy jarayonlarni boshdan kechirgan va bu o‘z navbatida har bir xalqning vaqtni qanday qabul qilishiga o‘z ta’sirini ko‘rsatmay

qolmagan. Bu esa ularning tilida, ayniqsa xalq maqollarda o'z aksini topgan. Chunki maqollar eng boy lingvomadaniy material hisoblanadi, ular orqali xalq va millat madaniyatining namoyon bo'lish shakllari mustahkamlanadi va ifodalanadi [4:52]. Maqollarda aks etgan voqeliklar xalqning milliy dunyoqarashi va turmush tarzini ifodalashga xizmat qiladi.

Maqollar — xalqning asrlar davomida to'plagan hayotiy tajribasi, axloqiy qoidalari va dunyoqarashini o'zida mujassam etgan, grammatik jihatdan gap holda shakllangan barqaror iboralardir [5:338]. Maqollar orqali ifodalanadigan fikr universal xarakterda bo'lib, bunday univesallik, ya'ni dunyo tillariga xos umumiy ma'no ifodalash xususiyati taqqoslanayotgan tillarning paremiologik fondiga ham xosdir. Masalan, o'zbek tilidagi vaqtdan unumli foydalanishga, uning har bir daqiqasini behuda sarflamaslikka undovchi *“Vaqillagan vaqtni o'tkazar, qo'lidan naqdni ketkazar”* maqoli, ingliz xalqidagi *“A penny will never come to two pence”* maqoliga o'xshash bo'lib, har ikkala madaniyatda ham asosiy e'tiborni kerakli narsalarga sarflamasdan, mayda-chuyda narsalarga berilib ketgan kishi hech qachon muvaffaqiyatga erisha olmasligiga ishora qiladi. Shuningdek, vaqtni qardrini e'tirof etuvchi o'zbek tilidagi *“Vaqtning ketdi-naqding ketdi”*, *“Vaqt kutib turmaydi”*, *“Vaqt –oltin emas, yo'qotilsa topilmaydi”*, *“Vaqtni qadrlagan – umrini qadrlagan”* kabi maqollar, ingliz tilidagi *“Time waits for no man”*, *“Time is money”*, *“There is no time like the present”* kabi maqollar bilan mazmun jihatidan bir-biriga mos keladi.

Har qanday tildagi paremiologik birliklar o'z semantikasida muayyan bir xalqning uzoq davom etgan madaniy-tarixiy taraqqiyotini aks ettiradi. Ular orqali turlicha madaniy qadriyatlar, stereotiplar tilda mustahkamlanib, avlodlardan avlodlarga ko'chadi. Paremiologik birliklar orqali tilda mustahkam o'rin olgan tushunchalardagi obrazlar sistemasi shu xalqning olamni lisoniy tasavvurini hosil qiladi, chunki ular u yoki bu darajada shu lisoniy kollektivning moddiy, ma'naviy, madaniy, milliy va ijtimoiy tajribasi natijasida vujudga keladiki, ularda aynan ana shu madaniy -milliy tajriba va an'analar o'z ifodasini topadi.

O'zbek va ingliz tillarida “Vaqt” tushunchasini o'zida mujassamlashtirgan paremiyalarning chog'ishtirma tahlili natijasida, paremiologik qatlamda quyidagi semantik xususiyatlar namoyon bo'lishini ko'rib chiqdik:

- *Vaqtning qadrliligi*: O'zbek tilida “Vaqtning ketdi – naqding ketdi”, “Vaqtni zoye qilma”, “Vaqt aqchadur, g'ofil bo'lma qochadur”, ingliz tilidagi “Time is money”, “Don't waste time”, “Life is not all beer and skittles” kabi paremiyalar vaqtning qadrliligini, undan to'g'ri va unumli foydalanish kerakligini ta'kidlaydi.

- *Vaqtning o'tib boruvchiligi*: O'zbek tilidagi “Vaqt o'tib ketadi”, “Vaqt tez o'tadi”, “Vaqt kutib turmaydi” kabi, ingliz tilida esa “Time flies”, “Time waits for no man” kabi paremiyalari vaqtning tez o'tib boruvchiligi, uni qaytarib bo'lmasligini ifodalaydi.

- *Vaqtning davolash kuchi*: O'zbek tilida “Vaqt barcha yaralarni bitiradi”, “Vaqt hamma narsaga davo”, ingliz tilidagi “Time heals all wounds” paremiyalari vaqtning insoniy azob-u alamni yengillashtirishi, dardlarni davolashiga ishonch bildiradi.

- *Vaqtning imkoniyatlari*: O'zbek tilidagi “Vaqt – eng yaxshi sudya”, “Vaqt barcha javoblarni beradi”, “Vaqt – qozi”, ingliz tilidagi “Time will tell” paremiyalari vaqtning haqiqatni ochish, barcha narsalarni o'z joyiga qo'yish imkoniyatini ko'rsatib beradi.

Vaqt tushunchasi ko'p qirrali bo'lib, u barcha zamonaviy fanlarning o'rganish obyektlaridan hisoblanadi. Vaqt tilshunoslikda lisoniy vaqt deb atalib, inson faoliyati, til vositasi va tashqi haqiqat o'rtasidagi aloqani aks ettirib, real voqelikni til orqali tasvirlashda

vositachilik qiladi. Vaqt mazmunli paremiyalar ma'lum semantik qatlamlarni tashkil etishi bilan birgalikda, o'ziga xos metaforik tasvirlarni ham namoyon etadi:

1. *Vaqt – oqim*: Ingliz tilida “*The stream of time*”, o'zbek tilida “*Vaqt daryosi*” – vaqtning uzluksiz oqib boruvchi, to'xtovsiz harakatlanuvchi oqim ekanligini ifodalaydi.

2. *Vaqt – yo'l*: Ingliz tilidagi “*Time marches on*”, O'zbek tilida “*Vaqt o'tib ketadi*” – vaqtning oldinga harakatlanuvchi, maqsadga intiluvchi yo'l ekanligini ko'rsatadi.

3. *Vaqt – boylik*: Ingliz tilida “*Time is money*”, o'zbek tilida “*Vaqt – oltin*” – vaqtning qadriligi, uni pul kabi baholash kerakligini ifodalaydi.

4. *Vaqt – shifokor*: “*Time heals all wounds*” (ingliz tili), “*Vaqt barcha dardlarga davo*” (o'zbek tili) – vaqtning davolash kuchi, azob-u alamni yengillashtirish imkoniyatini ko'rsatadi.

Ingliz va o'zbek paremiyalarida “Vaqt” tushunchasining ifodalanishida madaniy farqlar mavjud. Ingliz paremiyalari ko'pincha vaqtni pul bilan bog'laydi, uning iqtisodiy qiymatiga urg'u beradi. O'zbek paremiyalari esa vaqtning hayotiy ahamiyatiga, uning o'tib boruvchiligiga va insoniy munosabatlarga ta'siriga ko'proq e'tibor qaratadi. Masalan, ingliz tilida “*Lost time is never found again*” (yo'qolgan vaqtni topib bo'lmaydi) paremiyasi vaqtning o'tib boruvchiligini ta'kidlaydi, o'zbek tilida esa “*Vaqt o'tadi, hikoya qoladi*” paremiyasi vaqtning o'tib boruvchiligi bilan birga, xotiralar va hikoyalar qolishini ifodalaydi.

Ingliz va o'zbek paremiologik matnlarida “vaqt” tushunchasining ifodalanishi madaniy va lingvistik xususiyatlarga bog'liq. Paremiyalarning semantik xususiyatlari, metaforik tasvirlari va madaniy konnotatsiyalari tushunchaning milliy xususiyatlarini aniqlashga yordam beradi. Ushbu taqqosiy tahlil o'zbek va ingliz xalqi tomonidan “vaqt” tushunchasining universal ma'no xususiyatlarini ko'rsatib berishi bilan bir qatorda, ikkala madaniyat tomonidan o'ziga xos tushunchalarni namyon qilishini tushunishga imkon beradi.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. Shaxriddinov O.F. O'zbek tilida paremiologik birliklarning tarixiy va arxaik ko'rinishlari//Globallashuv davrida turkologiya rivoji masalalari va ta'lim, 2025. –B. 157-159.
2. Шустова С.В. Ценностные представления о небе и земле: лингвокультурологический анализ фразеологизмов и паремий русского языка//Теоретическая и прикладная лингвистика. - 2020. - Т. 6. -№ 3. - С. 197-204.
3. Натхо О.И. Паремии в англоязычном научно-популярном деловом дискурсе. Автореф. дис. ... канд. филол. наук. – Пятигорск, 2017. – 28 с.
4. Бакиров П. Номинацентрические пословицы в разносистемных языках (на материале русского, узбекского и казахского языков). Автореф. дисс. ... докт. филол. наук. – Ташкент, 2007. – 52 с.
5. Normurodova D. Badiiy asarlarda paremiologik birliklarning qo'llanilishi va ahamiyati. *New Renaissance International Scientific Journal. ResearchBib* IF-2023:11.01, ISSN:3030-3753, Volume 1 Issue 10. <https://doi.org/10.5281/zenodo.14406790>
6. <https://n.ziyouz.com/portal-haqida/xarita/uzbek-xalq-ogzaki-ijodi/uzbek-xalq-maqollari/vaqt-va-fursat-qadri-haqida-maqollar>